
Qabul qilindi: 19-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 21-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 23-noyabr 2026-yil

DAVLAT CHEGARASINI KESIB O‘TISH BILAN BOG‘LIQ JINOYATLAR UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI AMALGA OSHIRISHDA HUDUD MASALASI

Suyarova Fotima Sobirovna

Toshkent davlat yuridik universiteti, Korrupsiyaga qarshi kurash va komplayens nazorat yo‘nalishi magistranti



Annotatsiya: Mazkur maqolada davlat chegarasini kesib o‘tish bilan bog‘liq jinoyat sodir etilgan joyni aniqlashning huquqiy mezonlari hamda hudud bilan bog‘liq murakkab holatlar, davlatlar vakolatlari to‘qnashuvi masalalari hamda davlat chegarasini kesib o‘tish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirish imkonkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: davlat chegarasi, samoviy hududi, transchegaraviy jinoyat, to‘liq yurisdiksiya, hududiy yurisdiksiya ,ekstraterritorial yurisdiksiya.


Hozirgi globallashuv sharoitida davlatlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalar tobora kengayib borayotgan bir paytda davlat chegaralarining ahamiyati yanada ortmoqda. Bugungi kunda g‘ayriqonuniy qilmishlar davlat chegarasini qonunga xilof ravishda kesib o‘tish, bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda tovar-moddiy boyliklarni olib kirishga urinish, fuqarolik muomalasi cheklangan tovarlarni kontrabanda qilish, giyohvand yoki psixotrop moddalar yoki kuchli ta’sir qiluvchi tibbiy preparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, odam savdosi, mamlakatga kirish-chiqishning belgilangan tartibini buzish, pornografiya, zo‘ravonlik, ekstremistik g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi materiallarni mamlakat hududiga olib kirish, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishi yoxud mamlakat hududi orqali harakatlanish va boshqa jinoiy qilmishlarni sodir etishda namoyon bo‘lmoqda.

Jinoyat qonunining amal qilishi hamma davrda ahamiyatli va muhim bo‘lib kelgan, shuningdek uning qo‘llanilishi masalasi bo‘yicha bugungi kunda amaliyotda bir qancha

tushunmovchiliklar va muammolar yuzaga kelmoqda. Xususan, boshqa davlatda jinoyat sodir etgan O‘zbekistonga kirib kelgan shaxslarning javobgarlik masalasi, ya’ni uni o‘sha davlat qonunchilgi asosida yoki O‘zbekiston qonunchiligi asosida javobgar qilish masalasi bilan bog‘liq qonunchiligimizda bo‘shliqlar mavjud hisoblanadi.

Shu o‘rindan davlat chegarasi tushunchasi va uning belgilanishi masalasiga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, huquqshunos olim Rustambayevning fikricha O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi — O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo‘shlig‘ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal sathdan iborat. Davlat chegarasi davlat suvereniteti amal qiladigan hudud doirasini belgilaydi[1].

Bilamizki davlatlarning hududi quruqlik, suv va havo ya’ni samoviy hududi bilan belgilanadi.



Quruqlik hududi – bu O‘zbekiston Respublikasi chegarasi ichidagi suv bilan qoplanmagan quruq yer maydoni. Bu hudud tarkibiga suv bilan o‘ralmagan va suv bilan o‘ralgan (orol) barcha quruqlik maydoni kiradi. Quruqlik hududi tarkibiga davlat chegaralari ichidagi sun’iy hosil qilingan yer maydonlari (masalan, sun’iy orol, suv ustiga qurilgan binolar va hokazo), suv yo‘lidagi texnik inshootlar – plotina, damba, ko‘prik va boshqalar ham kiradi. Davlat chegarasi chizig‘idan qat’i nazar, O‘zbekiston hududiga qarashli deb, bunday texnik inshootlarning o‘rtasidan yoki o‘q chizig‘idan respublikaga qarab o‘lchangan qismi hisoblanadi

Suv hududi – bu davlat chegaralari ichidagi suyuq holatdagi suv resurslaridir. Suv hududi tarkibiga ichki suvlar va O‘zbekiston Respublikasi hududiy suvlari hamda chegaraviy suvlarning tegishli qismi kiradi. Suv hududiga yerosti suvlari, termal va mineral suvlar kirmaydi. Bunday suvlar yerosti boyliklari deb hisoblanadi.

O‘zbekistonning samoviy hududi – bu Respublikaning quruqlikdagi yerlari va suv havzalari ustidagi yer atmosferasining qismidir. Samoviy hududi quruqlik va suvdagi O‘zbekiston davlat chegaralaridan vertikal chiziq bilan belgilanadi.

[1] M.X.Rustambayev. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. 2-Tom. “Yuridik adabiyotlar publish”. 2024.

O‘zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligi jinoiy javobgarlikni belgilashda hududiylik prinsipidan kelib chiqadi va ular davlatning suverenitetini ifodalaydi. Davlat suvereniteti qonunning hududiylik tamoyili o‘zaro uzviy bog‘langan hisoblanadi hamda davlat hokimiyati uning hududiy masofalari bilan chegaralangan va unining qonunlari shu chegaralar doirasida amal qiladi. Davlat suvereniteti va hududiylik prinsipi davlat hokimiyati muayyan hudud doirasida chegaralanganligi va unining qonunlari faqat ushbu hududda amal qilishini anglatadi.

Davlat suvereniteti — bu davlatning o‘z hududida oliy hokimiyatga egaligi va tashqi munosabatlarda mustaqil siyosat yuritish huquqini anglatadi. Ya’ni, davlat ichki va tashqi ishlarini hech kimning aralashuvisiz o‘zi hal qiladi. Davlat chegarasi davlat suvereniteti amal qiladigan hudud doirasini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasiga kirish, chiqish va davlat chegaralaridan o‘tish bilan bog‘liq munosabatlarni jinoyat-huquqiy qo‘riqlashdan maqsad fuqarolarning ko‘chib yurish erkinligi bilan bog‘liq konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishlarini tartibga solish va yetarli sharoitlar yaratishdan iborat. Davlat suverenitetining davlat chegarasi va daxlsizligida hamda hududiylik prinsipini tadbiq etishda muhim ahamiyatga ega.

M.X.Rustambayevning ta’kidlashicha, “davlat chegarasi davlat suvereniteti amal qiladigan hudud doirasini belgilaydi”[2].


Shuningdek, A.A.Allanovaning fikricha “Davlat chegarasi davlat suvereniteti amal qiladigan hudud doirasini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasiga kirish, chiqish va davlat chegaralaridan o‘tish bilanbog‘liq munosabatlarni jinoyat-huquqiy qo‘riqlashdan maqsad fuqarolarning ko‘chibyurish erkinligi bilan bog‘liq konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishlarinitartibga solish va yet arli sharoitlar yaratishdan iborat”[3].

Yuqoridagi fikrlardan ham bilishimiz mumkinki davlat chegarasi va davlat suvereniteti davlatchilikda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatshunoslik va xalqaro huquqda davlat chegarasi va davlat suvereniteti tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, davlatning

[2] M.X.Rustambayev. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. 3 Tom. “Yuridik adabiyotlar publish”. 2024. 284-bet.
[3] Allanova.A.A . Qonunga xilof ravishda chet elga chiqish yoki O‘zbekiston Respublikasiga kirish uchun javobgarlik: jinoyat-huquqiy va kriminologik muammolar. PhD dissertatsiyasi. -B.15

mavjudligi uchun poydevor hisoblanadi.

O‘zbekistonda jinoyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilishiga taaluqli muammolar bir qancha jabhalarda ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, jinoyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilishining prinsiplarini tartibga solish va takomillashtirish, bundan tashqari hozirgi internet rivojlanayotgan zamonda elektron fazoda jinoyat qonunining amal qilishi masalasini jinoyat huquq tizimiga shuningdek qonunchilikka kiritish, jinoyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilishida ekstraditsiya to‘g‘risidagi masalaga qonuninda chuqurroq va kengroq to‘xtalib o‘tish maqsadida bu borada alohida normalar kiritish zarur deb hisoblaymiz.



Internet orqali sodir etiladigan jinoyatlar — masalan, firibgarlik, axborot tizimlariga ruxsatsiz kirish, ma’lumotlarni o‘g‘irlash, yoki zararli dasturlar tarqatish — holatida jinoyatning joyini aniqlash murakkab bo‘ladi. Chunki jinoyatchi bir mamlakatda bo‘lishi, jabrlanuvchi boshqa mamlakatda yashashi, jinoyatda foydalanilgan serverlar esa uchinchi davlat hududida joylashgan bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda jinoyat sodir etilgan joyni aniqlashda quyidagi mezonlardan foydalaniladi:

Jinoiy harakat sodir etilgan joy — jinoyatchi kompyuter tizimiga kirgan yoki zararli faoliyatni boshlagan joy (masalan, uzatilgan buyruqlar yoki zararli fayl jo‘natilgan manzil).

Jinoiy oqibat yuzaga kelgan joy — jabrlanuvchining kompyuter tizimi yoki ma’lumotlari zarar ko‘rgan joy, ya’ni zarar real ravishda namoyon bo‘lgan hudud.

Serverning joylashuvi — ma’lumotlar yoki jinoyatga tegishli serverlar qayerda joylashgani (masalan, hosting kompaniyasi mamlakati). Bu jihat texnik jihatdan kuzatuv va tergov nuqtayi nazaridan muhimdir.

Jabrlanuvchining joyi (residensiyasi) — jinoyat oqibatida zarar yetgan shaxs yoki tashkilotning faoliyat joyi ham yurisdiksiya belgilashda inobatga olinadi.

Raqamli izlar (digital footprints) — IP manzillar, tarmoqlararo aloqa yozuvlari, domen va pochta ma’lumotlari orqali aniqlangan texnik izlar jinoyat sodir etilgan yoki boshqarilgan hududni ko‘rsatishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, yuqorida sanab o‘tilgan jinoyatlarda ham davlatlararo chegaralar buzib o‘tilmoqda va hudud masalasini hal qilish murakkablashib bormoqda. Shuningdek

kiberjinoyatlar orqali ko‘plab hujjatlar, ma’lumotlar va shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritib qalbakilashtirilmoqda. Bular ham jinoyatchi shaxslar tomonidan davlat chegarasini buzib kirishga hamda chegaralarning daxlsizligiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Jinoyat qonunining amal qilishi hamma davrda ahamiyatli va muhim bo‘lib kelgan, shuningdek uning qo‘llanilishi masalasi bo‘yicha bugungi kunda amaliyotda bir qancha tushunmovchiliklar va muammolar yuzaga kelmoqda. Xususan, boshqa davlatda jinoyat sodir etgan O‘zbekistonga kirib kelgan shaxslarning javobgarlik masalasi, ya’ni uni o‘sha davlat qonunchilgi asosida yoki O‘zbekiston qonunchiligi asosida javobgar qilish masalasi bilan bog‘liq qonunchiligimizda bo‘shliqlar mavjud bo‘lib hisoblanadi.

Qoida sifatida takidlab o‘tilganki, O‘zbekiston Respublikasining chet el davlatidagi elchixonalari va diplomatik vakolatxonalari hududida sodir etgan jinoyatlari O‘zbekiston Respublikasi hududida sodir etilgan, deb hisoblanadi. Bunga asos sifatida O‘zbekiston Respublikasi hududi 1O‘zbekiston Respublikasining “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi XII sonli Qonuni respublikanining elchixonalari va diplomatik vakolatxonalari joylashgan hudud ham ko‘zda tutilishini keltirishimiz mumkin, shuningdek ushbu elchixona va diplomatik vakolatxonalar mahalliy qonunchilik ta’siridan ajratilgan bo‘lib xalqaro huquqning umumiy qoidalariga muvofiq eksterritorial maqomga ega bo‘ladi. Shuni hisobga olib aytish mumkunki, O‘zbekiston hududida joylashgan chet el davlatlari elchixona va diplomatik vakolatxonalarida sodir etilgan jinoyatlar ham o‘sha davlatlar qonuniga muvofiq ko‘riladi, bu haqida “Diplomatik aloqalar to‘g‘risida” 1961-yil 18-apreldagi Vena konvensiyasida va “Konsullik aloqalar to‘g‘risida” 1963-yil 24-apreldagi Vena konvesiyasida keltirilgan.

Jinoyat sodir etilgan joyni aniqlash va unga muvofiq qo‘llanilishi lozim bo‘lgan jinoyat qonunini tanlash odatda katta qiyinchilik tug‘dirmaydi, chunki sodir etilgan jinoyatlarning aksariyati qisqa muddatli bo‘lib, cheklangan maydonda (masalan, kvartirada, ko‘chada, bog‘da va h.k.) sodir etiladi, ya’ni bir davlat hududida amalga oshiriladi. Shu sababli, agar jinoyat faoliyati uning hududida boshlangan va yakunlangan bo‘lsa, jinoyat O‘zbekiston hududida sodir etilgan deb hisoblanadi. Ayrim hollarda esa, amaliyotda jinoiy harakat O‘zbekiston hududida sodir etilgan, ammo jinoiy oqibatlari boshqa davlat hududida yuzaga

kelgan holatlar ham uchrab turadi. Yoki aksincha, jinoiy harakat davlatimiz hududidan tashqarida sodir etilib, uning oqibatlari O‘zbekiston hududida yuzaga kelgan holatlar ham bo‘lishi mumkin (moddiy tarkibli jinoyatlar).

Shuningdek, davlatlarda fuqarolarni topshirmaslik prinsipi mavjud bo‘lib, ko‘plab davlatlar o‘z fuqarolarini ekstraditsiya qilmaydi. Buning natijasida jinoyat sodir etilgan davlat yoki jinoyatdan jabrlangan davlat jinoiy javobgarlikni amalga oshira olmaydi. Ba’zi hollarda jinoyatchi jazodan qochib qolishi yoki juda yengil jazo bilan javobgarlikka tortilishiga olib kelmoqda.

Qayd etish lozimki, ba’zi davlatlar bilan ekstraditsiya shartnomalari yo‘qligi ham chegarani buzib o‘tganlik uchun javobgarlik masalasida ko‘plab muammolarga olib keladi. Agar davlatlar o‘rtasida shartnoma bo‘lmasa, odatda ekstraditsiya amalga oshirilmasligi mumkin yoki siyosiy kelishuvlarga bog‘liq bo‘ladi. Agar davlatlar o‘rtasida kelishuvga erishilmasa ushbu holatda jinoyatchini javobgarlik masalasi hal etilmasligi mumkin.

Transchegaraviy jinoyat — bu bir nechta davlat hududi bilan bog‘liq bo‘lgan, ya’ni jinoyatning tayyorlanishi, sodir etilishi yoki oqibatlari bir davlat bilan cheklanmay, boshqa davlatlarga ham ta’sir qiladigan jinoyat turidir. Bu tushuncha Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjatlarda ham keng qo‘llanadi.

Jinoyat qonuni muayyan hududda va ma’lum shaxslar doirasiga nisbatan amal qiladi. Jinoyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilish muammosini ko‘rib chiqishda xalqaro huquqda “yurisdiksiya” tushunchasi qo‘llaniladi. Huquqiy tartibga solish predmetiga ko‘ra, bu yerda so‘z jinoyat huquqiy yurisdiksiya haqida ketmoqda. Huquq nazariyasida bu tushunchaning yagona va aniq ta’rifi mavjud emas. Umuman olganda, yurisdiksiya - bu davlat hokimiyatining ustuvorligi, uning qonunlarining amal qilish doirasi va tegishli sohalarga ta’sir etishi hisoblanadi. Shu bilan birga, yurisdiksiyani davlat vakolatli organlarining huquqiy masalalarni hal etish bo‘yicha huquqiy vakolatlarining yig‘indisi sifatida ham talqin etish mumkin.

Yurisdiksiya quyidagi turlarga bo‘linadi:

a) To‘liq va cheklangan yurisdiksiya;

b) Hududiy (territorial) va ekstraterritorial yurisdiksiya.

To‘liq yurisdiksiya - bu davlatning o‘z davlat hududi doirasida jinoyat-huquqiy normalarni to‘liq tatbiq etishidir.

Hududiy yurisdiksiya – bu davlat suverenitetining barcha shaxslar (fuqarolar, chet elliklar, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar)ga nisbatan o‘z davlat hududida tatbiq etilishini bildiradi.

Ekstraterritorial yurisdiksiya - davlat hududidan tashqarida sodir etilgan jinoyatlarga jinoyat qonunining tatbiq etilishini anglatadi.

Ekstraditsiya(lot. Ex-dan+tradio-berish)- jinoyatchilarni ushlab berish, ya’ni bir davlatning boshqa davlat iltimosi asosida,jinoyat sodir etgan yoki sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni jinoiy ta’qib yoki hukmni ijro qilish uchun talab qilgan davlatga ushlab berish[4]

Qonun va xalqaro shartnomalarga asosan jinoyat-huquqiy yurisdiktsiyadan immunitet huquqi bilan quyidagi shaxslar foydalanadilar: xorijiy davlatlarning elchilari va vakillari, ish yurituvchilari, harbiy attashelar va ularning yordamchilari, elchixona maslahatchilari va kotiblari, savdo vakillari va ularning o‘rinbosarlari, kotib-arxivchilar, shuningdek, diplomatik vakillik rahbarlari va xodimlarining oila a’zolari, agar ular ko‘rsatilgan shaxslar bilan birga yashasa va Rossiya fuqarosi bo‘lmasa. Jinoyat yurisdiktsiyasidan diplomatik immunitetga ega bo‘lgan shaxslar ro‘yxati 1961-yildagi Vena konvensiyasi “Diplomatik munosabatlar to‘g‘risida”, 1963-yildagi Vena konvensiyasi “Konsullik munosabatlari to‘g‘risida” hamda boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Davlatlararo kelishuvga muvofiq eksterritorial huquqdan foydalanuvchi shaxslarning doirasi kengaytirilishi yoki toraytirilishi mumkin. Ushbu qoidalar odatda milliy qonunchilikda ham o‘z aksini topadi.

1946-yilgi privilegiyalar va immunitetlar to‘g‘risidagi konvensiya diplomatik immunitetni to‘liq holda tartibga solmaydi, balki faqat maxsus jihatlarni o‘rnatadi, masalan, BMT a’zo davlatlarining vakillarini diplomatik vakillarga tenglashtiradi[5].

[4] Umarxanova D.Sh., X.R.Ochilov. Xalqaro jinoyat huquqi: Darslik / Ma’sul muharrir y.f.d. B.I.Ismailov. – T.: TDYU, 2019. – 208 bet.
[5] Раздел 11 Конвенции ООН о привилегиях и иммунитетах Объединенных нации (Нью Йорк, 13 февраля 1946) // СПС Консультант Плюс

Diplomatik immunitet institutining manbalari sifatida ko‘rsatilgan konvensiyalar eng muhimi hisoblanadi. 1961-yilgi Vena konvensiyasida diplomatik vakillik a’zolari kategoriyalari aniqlanadi[6]. Ularga vakillik rahbari va vakolatxona xodimlari kiradi.

Demak, O‘zbekiston Respublikasi jinoyat yurisdiksiyasidan immunitetga ega bo‘lgan shaxslar quyidagilardir

1. Diplomatik agentlar. O‘zbekiston fuqarosi bo‘lgan diplomatik agentlar faqat vakolatlarini bajarish jarayonida immunitetga ega bo‘ladilar, deya Konventsiyaning 31-moddasida ko‘rsatilgan.

2. Konvensiyaning 37-moddasining 1-bandiga binoan, diplomatik agentning oila a’zolari, agar ular birga yashasa va O‘zbekiston fuqarolari bo‘lmasa.

3. Ma’muriy-texnik xodimlar va ularning birga yashaydigan oila a’zolari, O‘zbekiston fuqarolari bo‘lmasa va O‘zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi yo‘q shaxs bo‘lmasa. Diplomatik immunitetning vaqt bo‘yicha amal qilish ma’lum chegaralarga ega. U mutanosib shaxsning O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirgan vaqtdan boshlanadi yoki agar shaxs allaqachon davlat hududida bo‘lsa, diplomatik immunitetga ega shaxs maqomini olganidan (diplomatik xodim etib tayinlanishi, diplomatik agent bilan turmush qurishi, tug‘ilishi va boshqalar) boshlab hisoblanadi.

Mazkur Konvensiyaning 43-moddasining 1-bandiga binoan: “Konsul vakillari konsul vazigalarini bajarish jarayonida amalga oshirgan harakatlari bo‘yicha osha davlatining sud yoki ma’muriy organlari yurisdiksiyasiga tortilmaydi”. Shu sababli, ularning oila a’zolari jinoyat yurisdiksiyasidan immunitetga ega emas.

Imunitetga ega bo‘lgan keyingi toifadagi shaxslar bu biz shartli ravishda “diplomatik immunitet” deb ataydigan immunitetga ega bo‘lgan shaxslar hisoblanadi, bu - xorij mamlakatlarining davlat boshliqlari, xorijiy davlatlarning hukumat boshliqlari hamda xorijiy davlatlarning tashqi siyosat idoralari rahbarlaridir.

Jinoyat kodeksining 11-moddasi 4-qismi talqinining kengaytirilgan tushuntirishida shunday ta’kidlanadi. Yuqori martabali davlat mansabdor shaxslari immuniteti masalasini

[6] Diplomatik aloqalar to‘g‘risida Vena konvensiyasi https://lex.uz/ru/docs/-2647543

tartibga soluvchi xalqaro shartnoma esa, hozircha qabul qilinmagan, biroq BMTning Xalqaro huquq bo‘yicha Komissiyasi tomonidan bu masala bir necha bor muhokama qilingan.

Shunday qilib, diplomatik immunitet prinsipi jinoyat qonunining hudud bo‘yicha amal qilishining hududiylik prinsipidan istisno sifatida qabul qilinadi, va shuni aytish joyizki, bu xalqaro va davlatlararo munosabatlarning o‘ziga xosligi bilan bog‘liq hisoblanadi. U O‘zbekiston hududida jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan milliy jinoyat yurisdiksiyasini cheklaydi, agarda mazkur shaxslar diplomatik agentlar, konsullik lavozim egalari, xorijiy davlatlarning davlat boshliqlari va shunga o‘xshash shaxslar bo‘lsa.

Davlatlar o‘z fuqarolarini boshqa davlatga topshirishni o‘z suverenitetining chek deb qabul qilinishi mumkin. Agar bir davlat boshqa davlatdan o‘z fuqarosini qo‘llab-quvvatlashni qat’iy talab qilsa, rad javobi ko‘pincha siyosiy hurmatsizlik sifatida talqin qiladi. Aynan shunday vaziyatlar davlat o‘rtasida kelishmovchiliklar va nizolarning sabablaridan hisoblanadi.

Demokratik davlatlar ko‘pincha ekstraditsiyani rad etadi. Buning asosiy sabalaridan biri o‘lim jazosining borligi. Ya’ni shaxs topshirilgan davlatda o‘lim jazosi mavjud bo‘lsa, lekin shaxsning o‘z davlatida o‘lim jazosi bekor qilingan bolsa bunday holatlarda davlatlar insonparvarlik prinsipidan kelib chiqib ekstraditsiyani rad etishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida davlat chegarasini kesib o‘tish bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirish — milliy xavfsizlikni mustahkamlash, noqonuniy migratsiya va transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi samarali kurashishda muhim yo‘nalish hisoblanadi. Buning uchun qonunchiligimizga o‘zgartirishlar kiritish va yangi normalar kiritish lozim hisoblanadi.

Shuningdek hozirgi kunda davlat chegarasini noqonuniy buzib kirganlik holatlarining ko‘p holatlari qasddan ya’ni shaxsning o‘zi bilib turgan holatda sodir etmoqda. Ushbu holatlarni statistik ma’lumotlar orqali ham ko‘rib o‘tishimiz mumkin. Xalqaro Migiratsiya tashkilotining o‘z sayti orqali berib boriladigan statistik ma’lumotlariga qaraydigan bo‘lsak, 2024-yilda O‘zbekistonda umumiy jinoyatlar soni sezilarli oshgan (taxminan 27% ga ko‘paygan) Bu o‘sish tarkibida migratsiya va chegara bilan bog‘liq huquqbuzarliklar ham

mavjud, ammo alohida JK 223-modda kesimida raqamlar ochiq e’lon qilinmagan. Xalqaro migratsiya hisobotlariga ko‘ra, 2025-yilda: noqonuniy migratsiya bilan bog‘liq holatlar (jumladan, chegarani noqonuniy kesib o‘tish) doirasida 8 213 nafar fuqaro qayd etilgan Bu raqam to‘g‘ridan-to‘g‘ri faqat chegarani buzish emas, balki kengroq noqonuniy migratsiya holatlarini ham o‘z ichiga oladi[7].

Hozirgi global sharoitda an’anaviy chegara nazorati (pasportni qo‘lda tekshirish, oddiy kuzatuv) tobora murakkablashib borayotgan transchegaraviy jinoyatlarga qarshi yetarli samaradorligi pasayib bormoqda. Shu sababli **“Smart Border”** — ya’ni raqamli, avtomatlashtirilgan va tahlilga asoslangan chegara boshqaruvi tizimini joriy etish zarur. Ushbu tizim chet el amaliyotida ham keng qo‘llanilib boshlagan. Ilk bor ushbu tushuncha AQSh da “Smart Border Initiative” dasturini joriy qilgan hisoblanadi[8]. Bu tizimning asosiy maqsadi — chegarani tezroq, aniqroq va xavfsizroq nazorat qilish, inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytirish hamda xavfli shaxslarni oldindan aniqlashdir. Ushbu tizim suniiy intellekt bilan birga ishga tushiriladi. Ya’ni raqamli texnologiyalar va su’niiy intellekt jinoyat sodir etgan shaxslar va jinoyat sodir etishda gumonlanayotgan shaxslarni chegaradan o‘tish vaqtida bojxona tekshiruvlarida muddatidan avval aniqlashi mumkin bo‘ladi va inson omili bilan yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarni oldini oladi. Ushbu tizim nafaqat AQSh balki, Janubiy Koreyada “Smart Entry Service”[9] deb nomlanadi va keng qo‘llaniladi, Bundan tashqari dunyoning yetakchi davlatlari Xitoy, Singapur va Yaponiya kabi davlatlarda ham bu tizimdan foydalanib kelmoqda. Ushbu tizimning davlatimiz qonunchiligiga ham tadbiq etilishi ham davlat chegarasi bilan bog‘liq jinoyatlar qonunchiligini takomillashishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Kutilyotgan natijaga qaraydigan bo‘lsak, birinchidan jinoyatlarning oldini olish. Ya’ni davlat chegarasini noqonuniy kesib o‘tish holatlarini suniiy intellekt yordamida muddatidan avval aniqlash va ularning oldini olish.

Ikkinchidan, manfaatlar to‘qnashuvi hamda korrupsion holatlarni oldini olish. Bunda

[7] https://dtm.iom.int/terms-and-conditions
[8] https://www.cbp.gov/border-security/ports-entry
[9] https://www.tourpressa.com/post/yaponiya-i-yuzhnaya-koreya

suniiy intellekt barcha narsa analitik tahlillar orqali amalga oshirganligi uchun inson omilining aralashmasligiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan O‘RQ-2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // https://lex.uz/docs/-111453

2. O‘zbekiston Respublikasining 13.09.2023-yildagi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi O‘RQ 868-son Qonuni 3-moddasi https://lex.uz/docs/-660525798

3. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida”gi 2019-yil 6-fevraldagi O‘RQ-518 sonli Qonuni. 4-modda https://lex.uz/docs/-4193761

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2011-yil 25 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini kesib o‘tish tartibini buzishga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi Qarori. // www.lex.uz

5. M.X.Rustambayev. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Maxsus qism. 2-Tom. “Yuridik adabiyotlar publish”. 2024. 100

6. Jinoyat huquqi. Mualliflar jamoasi (Umumiy qism) Darslik. Mas’ul muharrir: yu.f.f.d (PhD) X.Ochilov - T.: Adolat nashriyoti, 2020. 52-bet.